



Xurshida KADIROVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, f.f.d
E-mail: kadirova.golden@yandex.ru

Alfraganus universiteti professori f.f.d M.Saparniyazova taqrizi asosida

QUALITY OF TEACHERS AND TEACHING: FOREIGN AND DOMESTIC EXPERIENCE

Annotation

This article provides methodological recommendations to help improve teachers' approach to teaching, their creativity, the classroom atmosphere, and student engagement. Ideas based on international experience are presented.

Key words: Lesson quality, quality of education, teacher skills, metaphor in language teaching, good student, three circles of education.

ВОПРОСЫ КАЧЕСТВА УЧИТЕЛЕЙ И ПРЕПОДАВАНИЯ: ЗАРУБЕЖНЫЙ И ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ

Аннотация

В статье даны методические рекомендации, которые помогут улучшить подход учителя к уроку, его творческие способности, атмосферу в аудитории и активность учащихся. Представлены идеи, основанные на зарубежном опыте.

Ключевые слова: Качество урока, качество образования, навыки учителя, метафора в преподавании языка, хороший ученик, три круга образования.

O'QITUVCHI VA DARS SIFATI MASALALARI: XORIJ VA MILLIY TAJRIBA

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'qituvchining darsga bo'lgan yondashuvlari, uning ijodkorlik mahorati, auditoriya muhiti va ularning faolligini oshirishga xizmat qiladigan metodik tavsiyalar berilgan. Unda xorijiy tajribaga asoslangan fikr mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Dars sifati, ta'lim sifati, o'qituvchi mahorati, til ta'limoda metafora, yaxshi ta'lim oluvchi, ta'limning uch doirasi

Kirish. Ayni paytda til ta'limi doirasida yaratilayotgan darsliklarda, xorijiy yondashuvlar, o'zgarishlar, takomillashuvlar ko'zga ko'rinsa boshladi. O'zbek tilini chet tili sifatida o'qitish ko'zda tutilgan yangi darsliklar til o'rgatishning xalqaro standartlari asosida yaratilmoqda. Bunda nutqiy kompetensiyalar, leksik kompetensiyalar: A1, A2, B1, B2 ko'rinishdagi sinflar kesimida taqsimlangan. Buning natijalaridan ham katta umidlar qilinmoqda. Xususan, o'zbek tilini o'qitishda xorijiy tillarni o'qitishdagi muayyan tajribalarni olib kirish perspektiv maqsadlardan biri hisoblanadi, bu rus guruhlarida o'zbek tilining samaradorligini oshirish, dars sifati yaxshilash uchun qilingan harakatdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yuqoridagi maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifani belgilab olish zarur: o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish bo'yicha muayyan qadamlar qo'yilgan bo'lib, biz bu bilan to'xtab qolmasligimiz kerak. Xorijliklar uchun tanlov imkoniyatini yaratish o'zbek filologlari oldida turgan majburiyatdir. Buning nazariy ahamiyati mana shu yaratilajak asarlarda o'z aksini topadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Darsliklarni yaratishda muhimi ta'lim sifati belgilovchi omillar sanaladi. Unda darsning shakl va mazmuniga e'tibor qaratilishi kerak. Ta'limda o'qituvchi shaxsi va kreativ yondashuvi ham darslikda o'z aksini topmigi zarur. Zero, pedagogning kasbiy kompetensiyalari muhim ekanligi hammaga ma'lum. Bunga turli metodik tavsiyalar ham kiradi. Shuningdek, ta'lim oluvchining akademik jarayondagi roli va strategiyalari ajralmas, yuqoridagilarga uzviy bog'liq qism hisoblanadi. Ta'lim oluvchining affektiv filtri, affektiv filtrdan chiqish jarayoni, muvaffaqiyatli talabalarning strategiyalari xorijiy tajribada yaxshi rivojlangan.

Tahlil va natijalar. Ta'lim sifati belgilovchi omillardan biri shakl va mazmun hisoblanadi. O'qituvchilarni

ikki guruhga bo'lish mumkin. Ba'zilar ko'proq o'qitish metodi ustida ishlaydilar, boshqalari esa mazmuniga ko'proq e'tibor qaratadilar. Buni yorqinroq tasavvur qilish uchun shakl va mazmun o'rtasidagi munosabatni grafikda nuqtalar bilan ifodalash mumkin. X o'qini biz ko'k chiziqli bilan ifodalab, shakl deb qabul qilamiz. Va Y o'qini biz qizil chiziqli bilan ifodalab, mazmun deb qabul qilamiz. Universitet professor-o'qituvchilari taqdimotning ko'proq mazmuniga e'tibor berib, ko'pincha taqdimot yaratish texnikasi kurslarida malakasini oshirmaydi. Bunday odamlar koordinata o'qlarimizning to'la mazmunli, ammo yetarli bo'lmagan metodologiya sohasiga kiradi. Diapazonning boshqa tomonida joylashgan boshlang'ich va o'rta maktab o'qituvchilari o'z o'rniga ega bo'ladi. Ular ranglar, o'yinlar va hikoyalardan foydalanadilar. Guruhda ishlash, kartochkalar, rangli taxtachalar kabi vositalardan foydalanishadi. Biroq, metodika odatda avval o'rganilgan va qo'llanilgan bo'lsa-da, ba'zan boshlang'ich va o'rta maktab o'qituvchilari darslik va materiallarni tanlash erkinligiga ega emaslar. Va shuning uchun, ular ko'p vaqtlarini mazmunni emas, balki metodologiyani boyitishga sarflaydilar. Mazmun-mohiyat va metodologiya muvozanatini saqlay olish muammosi bo'lgan yana bir o'qituvchi – quvnoq o'qituvchidir. Ularning darslari ko'pincha turli o'yinlar bilan o'tadi. Lekin bunda ta'lim susayishini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. O'yin sifatida o'qitish qiziqarli, lekin hikoya qimmatli dars vaqtining sarflanishiga arziydigan vosita emas. Bu xulosalar qarama-qarshi tomonlardagi o'qituvchilarni tanqid qilish uchun emas. Albatta, antiqa metodlardan foydalanadigan universitet professorlari ham bor. Va ajoyib mazmun-mohiyatni yaratadigan boshlang'ich maktab o'qituvchilari ham yo'q emas. Quvnoq o'qituvchi esa ajoyib pedagog ham bo'lishi mumkin. Muhimi o'qituvchi o'zini qaysi o'rinda deb bilishidir. O'qituvchi uchun mazmun va shakl o'rtasida oqilona muvozanatni kashf eta bilishidir.

So'ngi 20 yil ichida yaxshi o'qituvchilar, buyuk o'qituvchilar o'z kasbini tark etayotganligining guvohi bo'lyapmiz. Vijdonan mehnat qilgan o'qituvchilarni bu kasb juda toliqtiradi. O'qituvchilik sohasi doimo rivojlanib borayotganligi sababli o'zini karuselda o'tirgandek his qiladi va u tezroq va tezroq aylanadi. O'qituvchining kuch olishi va ilhomlanishi mumkin bo'lgan ko'plab usullari mavjud. Genri Ford "aqli bo'lish uchun hamma narsani bilish shart emas, balki u yoki bu ma'lumotni qayerdan olishni bilishdir, deb hisoblaydi. Uning so'zlariga ko'ra, pulda bir qator tugmalar bor va o'ng tugmani bosish orqali har qanday savolga javob olishi mumkin. O'qituvchi o'zini baxtiyor sezishi dars sifatini ta'minlaydi. Baxtli o'qituvchi charchamaslik uchun o'z-o'zini nazorat qilish tuyg'usiga ega bo'ladi. O'qituvchi istalgan makon va zamonda dars berishi muqarrar. Bunda o'qituvchilardan ijodkorlik talab etiladi. Baxtli o'qituvchilarning quyidagi jihatlari bo'ladi: Birinchidan, ular imkonsiz narsalarga emas, balki qila oladigan narsalarga e'tibor berishadi. Ikkinchi baxtli o'qituvchilar o'zgarishlarni tez qabul qiluvchi bo'ladi. Ba'zan proyektor, internet muammolariga duch kelishi mumkin. O'z-o'zini nazorat qilishni susaytiruvchi narsalar haqida o'ylashning o'miga, o'zining muhitini iloji boricha xotirjam qilishga intilish kerak. Uchinchi baxtli o'qituvchilar muvozanatni topadilar. Ayrimlarni doimo o'zlarini baxshida qiluvchilar sifatida ko'rish mumkin. Biroq o'z qadrini, o'z sog'lig'ini o'ylash kerak. Sevimli mashg'ulotga ega bo'lish, mashg'ulotdan zavqlanish o'qituvchini quvvatlantiradi va doimiy shikoyatlardan xalos etadi. To'rtinchi baxtli o'qituvchilar o'qitishning moddiy manfaatini qadrlashadi. Talabalarning yutuqlari ham o'qituvchiga zavq beradi, ilhomlantiradi.

O'qituvchi haqidagi metaforalardan biri o'qituvchini aktyor bilan solishtirish edi. Ammo, agar o'qituvchi talabalarga o'zining haqiqiy siyratini ko'rsatmas ekan, o'zi haqida to'g'ri taassurot qoldirishi muammo bo'ladi, bu esa charchashga to'g'ridan-to'g'ri yo'l. O'qituvchi kim bo'lishingizdan qat'iy nazar, o'z ichki dunyosining eng yaxshisini ko'rsata olishi kerak. Ta'lim oluvchining akademik jarayondagi o'rni o'z-o'zini anglashi bilan bog'liq, u ikki xil vaziyatni vujudga keltiradi. Bir tomondan, ma'lum miqdorda o'z-o'ziga ishonchni shakllantirsa, boshqa tomondan, o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotadi. Qaysidir ma'noda til o'rganish sahnaga chiqishga o'xshaydi. Talabalar birinchi marta biror narsa qilishga harakat qilganda o'ng'ay holatga tushib qolishi mumkin. Stiven Krashen bu tushunchani "affektiv filtr" atamasi yordamida tushuntiradi. Qisqa qilib aytganda, "affektiv filtr" yuqori bo'lsa, bu his-tuyg'ular ma'lumotni qabul qilishga to'sqinlik qiladi. Va agar "affektiv filtr" past bo'lsa, yengil idrok etishni ta'minlaydi. "Affektiv filtr", ayniqsa, auditoriya sharoitida juda yuqori bo'lishi mumkin. Va o'qituvchi ushbu filtrni kamaytirishga yordam beradigan va talabalarning xotirasiga, shuningdek, tayyorlagan, o'rgangan materialni bilishiga ishonch hosil qiladigan muhitni yaratishi kerak. Buning uchun bir nechta usullarni qo'llash mumkin: Birinchisi darsning boshidanoq barcha til o'rganuvchilari bilan hissiy aloqa borligiga ishonch hosil qilish kerak. Eng samarali texnika o'qituvchining talabalar bilan o'z muvaffaqiyatsizliklari bilan o'rtoqlashish, mag'lubiyatlarini baham ko'rish va ularni qanday his qilganini aytib berishdir. Ikkinchisi xatolarni hamisha normal holat deb bilish. Yaxshi pedagog talabalarning sa'y-harakatlarini qadrlaydi va ularni til o'rganishda xatolar muhim ekanligiga ishoniradi. Uchinchisi formativ baholashdan foydalanish. Talabalarga vaziyatlarda o'zini sinab ko'rish imkoniyatini berish va turli qonun-qoidalarga rioya qilishdan kamroq tashvishlanish zaruratini bildirish yaxshi samara beradi. Talabalarga shunchaki baho qo'yish o'rniga, fikr bildirilsa formativ baholash bo'ladi. Formativ baholashning yaxshi tomonlari bor, talabalar o'qituvchini hakam sifatida emas, balki trener, kordinator

sifatida ko'rishadi. To'rtinchisi kulgili ko'rinishga tayyor bo'lish. Bu talabalarga tavakkal qilishlari uchun ruxsat bor ekanligini ko'rsatadi, o'zlarining badastrlik hududidan chiqib ketishlari mumkinligini tushunishlariga yordam beradi. Ba'zan talabalarga: "Bizning auditoriyada, har qanday tajribaga ruxsat beriladi. Qiziqarli narsani gapirib bering. Aslida men buni sizdan kutaman va talab qilaman" deyish mumkin. Talabaga affektiv filtdan chiqish strategiyalarini yaratishda yordam berish kerak. Biroq muvaffaqiyatli talabalarning o'z strategiyalari bor. Masalan, yaxshi talaba taxmin qila oladi, tayyorgarlik ko'radi, kulgili ko'rinishdan qo'rqmaydi, amaliyotni, o'zini tekshirishni yaxshi ko'radi va ko'p savol beradi. Yaxshi talaba yozib oladi, yangi so'zlarni obrazlar bilan bog'laydi, savollariga javoblarni lug'atlardan, o'qituvchilardan va boshqa talabalardan ham topib ketaveradi. Ular bitta manbaga qarab qolmaydi. Yaxshi talaba yangi so'zni jismoniy harakatlarga bog'lash orqali assotsiatsiyalar yaratishi mumkin hamda o'yin tarafdori bo'ladi. Masalan, so'zlarning tartibini o'zgartirish va gaplarga yangi ma'no berish shular jumlasidan. Ularning aksariyati muvaffaqiyatli o'qituvchilarning strategiyalariga o'xshashligini sezish mumkin. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning metodologik asoslari 3 qutbdan iborat. Bu: til ta'limida pedagogikaning muhim jihatlari – bunda pedagogikaning uch doirasi va undagi pedagogik usullar o'z aksini topadi; til ta'limida metaforadan foydalanish; til ta'limida mustaqil ta'limning ahamiyati – til o'rganish eshikdan tashqarida ekanligi tan olishimiz kerak.

Pedagogikaning uch doirasi. Rus psixologi Lev Semyonovich Vigotskiy o'qituvchilar pedagogikaning uchta doirasini eslab qolishlari kerakligini tushuntiradi. Birinchi doira: talabalar bilgan narsalari. Ikkinchi doira: ular hali o'rganmagan narsalar. Uchinchi doira: talabalar o'qituvchidan o'rganishi kerak bo'lgan ma'lumot. Bu "yaqin rivojlanish doirasi" (ближайшая зона развития) deb ataladi. Stiven Krashen, ESL (English as a second language – Ingliz tili ikkinchi til sifatida) nazariyotchisi, materialning kirish mo'ljali (gipotezasi) deb nomlangan shunga o'xshash bir nazariyani taklif qiladi. Bu nazariya shuni ko'rsatadiki, talabalar rivojlanish uchun ayni damdagi darajasidan bir oz yuqoriroq bo'lgan kirish ma'lumotlarini olishlari kerak. Bir oz murakkabroq, o'zgina yangi material. Stiven Krashen buni "kirish + yangi ma'lumot (I + 1)" deb ataydi. E'tibor berilsa, bunday yondashuv L.S.Vigotskiyning xulosasidagi yaqin rivojlanish doirasi (ближайшая зона развития)ni yodga soladi. Ushbu doiradan tashqarida ishlaganda axborot talabaga qiyinlik qiladi. Birdaniga ko'p ma'lumot berishni S.Krashen "I + 10" deb ataydi. Bunga zid bo'lgan boshqa bir vaziyat elementar ma'lumotni berish hisoblanadi. Krashen buni "I + 0" deb ataydi. Unda "kirish mo'ljali" talabaga to'liq ma'lum. Demak: o'qituvchi yaqin rivojlanish doirasini aniqlab olishi kerak, shundagina talaba o'qituvchisiz tushuna olmaydigan materialni o'zlashtirishi mumkin. Til ta'limida talabalarga yordam beradigan uch xil texnika mavjud. Birinchisi: tana tili, ya'ni imo-ishora tili. Bu uslub Rozentalning ilmiy ishlarida o'z aksini topadi. Talabalar o'qituvchini kuzatayotganda imo-ishoralar, ko'z bilan aloqa qilish va harakat orqali yangi materialni tushunishlari oson bo'ladi. Ba'zi tadqiqotchilar noverbal muloqotni verbal muloqot kabi 80% samarali deb bilishadi. Albert Mehrabyan 7, 38, 55% qoidasini taklif qiladi, bu raqamlar bilan mos ravishda so'zlar orqali muloqot qilish foizi, nutq tonalligi va imo-ishora tili mos keladi. O'qituvchilik kasbi uchun ajralmas bo'lgan ikkinchi mahorat – bu nutqning o'ziga xos uslubi – o'z nutqidir. "O'qituvchi nutqi" qanday bo'lishi kerak!? O'qituvchi nutqi takror, qisqartirilgan grammatik shakllar, soddalashtirilgan nutq, e'tiborni tortuvchi so'zlar, umumiy madaniy kompetentsiyalar, savollar, izohlar va yana takrorlash kabi ko'plab unsurlardan iborat. Takrorlash – O'qituvchilar takrorlanadigan

ma'lumotlarga e'tiborni jalb qilish uchun "avval aytganimdek" yoki "boshqacha aytganda" kabi iboralardan foydalanadilar. Qisqartirilgan grammatik shakllardan foydalanish deganda turli konstruktiviyalarni soddalashtirish va potentsial qiyin va tushunarsiz iboralardan qochish karakligi tushuniladi. Bunda: Soddalashtirilgan so'z boyligi – oddiyroq so'zlardan foydalanish; Diqqatni jalb qiluvchi so'zlar – kirish so'zlardan foydalanish. Bular "birinchi", "masalan", "shuningdek" kabi so'zlardir; Madaniy kompetentsiyaga ega bo'lish; Aniqlik kiritish. Bunda qisqa pauza qilish, nutqni sekinlashtirish va boshidan boshlash bosqichlarini bosib o'tish mumkin; Savollar berish kabi usullar qo'llaniladi. Til o'qituvchilari doimo talabalarning ko'ziga e'tibor berishi kerak. Auditoriya bilan ko'z aloqasini o'rnatishning ahamiyatini e'tiborsiz qoldirmaslik zarur. Talabalarga tilni o'zlashtirishga yordam berishda muhim bo'lgan tana tili va pedagogik nutq kabi tushunchalardan tashqari yana Scaffolding usulidir. Uning lug'aviy ma'nosi bino qurish uchun ishchilarning foydalanadigan platformalar, ya'ni havozalardir. Usulning asosiy vazifasi talabalarga sodda topshiriqlar orqali bosqichma-bosqich murakkab narsalarga o'tish imkoniyatini yaratishdir, bu ularga qiyinroq vazifalarni bajarish uchun oson tushunchalarni birlashtirishga imkon beradi. O'qituvchi rahbarligida mashq qilgandan so'ng, talabalarga nihoyat topshiriqni mustaqil ravishda bajarish imkoniyatini berish orqali tilning mohiyati ochiladi. Ba'zan talabalar o'zlashtirishi yaxshi bo'lmasa, boshidan boshlash mumkin. Scaffolding bir martalik harakat emas. Bu juda rekursiv, ya'ni orqaga qaytib-qaytib, takror va takror amalga oshirish bilan natijalanadigan usuldir.

Chet tilini o'rganishda metaforalardan foydalanamiz. Birinchi metafora: til – bu shirinlik. Til o'rganuvchi o'rganilayotgan tilga ana shunday munosabatda bo'lishi kerak, ya'ni uni xoxlashi kerak, uni iste'mol qilishni istashi kerak va iste'mol qilgandan so'ng huzur topishi kerak. Vaholanki, uni (bizning misolimizda, shirinlikni) dasturxonga turlicha tortish mumkin. Demak, birinchi mezon tilni go'zaligini namoyon qila olish. Biz talabalarga "Til – bu shirinlik" degan metafora xususida esse yozdirish orqali ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, o'zlaridan boshqa hech kimda bo'lmagan misollarni izlashga undash kabi amallarni bajargan bo'lamiz.

O'qish va uqish – bu o'rganish va o'zlashtirishdir. O'qish (o'rganish) – bu talabaga berilgan ma'lumotni tushunish va eslab qolishi. Auditoriyada sodir bo'ladigan jarayon. Uqish (o'zlashtirish) real hayotda qo'llaniladi. Til ta'limida o'zlashtirish o'rganishdan ustunlik qiladi. Genri Duglas Braun "fotokamera" metaforasidan foydalangan holda o'qitishning ikkita shakli haqida yozgan. Braun nuqtai nazarida, tildan foydalanish fotokamera o'xshaydi, uning ikkita, ya'ni kattalashtirish va kichiklashtirish linzalari mavjud. Tilni kattalashtirganda, biz so'z, oddiy o'tgan zamon yoki muayyan talaffuz qoidasi kabi juda kichik lingvistik tuzilmalarga e'tibor qaratamiz. Va "keng burchakli obyektiv"dan foydalanib, ma'noni tushunishga yoki fikrni yetkazishga harakat qilamiz. Bu ikki turdagi o'rganish borasidagi mulohazani Barbara Okli ham tasdiqlagan. U talaba diqqatini jamlashning ikki xil usulini tasvirlab beradi. U ulardan birini fokuslangan rejim, ikkinchisini esa diffuz rejim deb ataydi. Fokuslangan rejimda biz alohida vazifalarga, masalan, darslikdan bobni o'qishga e'tibor qaratamiz. Barbara Okli bunda diqqatni darsning dastlabki 25 daqiqasiga qaratishni tavsiya qiladi. Diffuz, ya'ni keng rejim miyani

chalg'itish va assotsiativ tasavvur va kombinatsiyalar yaratish mumkin bo'lgan vaqt uchun qoladi, zero bu fokuslangan rejimda mumkin emas. Shu ma'noda, til kameraga o'xshaydi va o'qituvchi fotosuratchidir. Talabalarni bir rejimdan ikkinchisiga o'tkazadi.

Ajoyib basketbolchi bo'lish uchun murabbiy bilan ko'p mashq qilish va o'yin qoidalarini o'rganish kerak. O'zlashtirish – bu tilni amalda qo'llash qobiliyatini anglatadi. Ehtimol, amaliyotning yetishmasligi bilan kurashishga yordam beradigan asosiy usul bu 80/20 qoidasidir. 80% amaliyot bo'lishi kerak – bu dars vaqtining asosiy qismi. Qolgan 20% esa nazariya, ko'rsatmalar, qoidalarni o'rgatish uchun xizmat qiladi. Tilning basketbol ekanligini va o'qituvchi unda trener ekanligini unutmaslik kerak.

Endi til o'rganishning ikki xil fokusi haqida: Fokuslangan rejim (zoom) va Diffuz rejim. Fokuslangan rejimda yuqorida ta'kidlanganidek, talabalar diqqati tilning molekulyar jihatlariga qaratiladi. Esab qolish uchun esa interval bilan takrorlash metodi qo'llaniladi. Har safar vazifaga qaytilganda, intervallar orasidagi vaqt oshiriladi. Diffuz rejimda til o'rganuvchilar chalg'itiladi, tildan erkinroq foydalanishga undaydigan umumiy topshiriqlar beriladi. Masalan, restoranda buyurtma berishni, do'konda poyabzal sotib olishni so'rash mumkin. Zero, darsda munozara, mulohaza va jiddiy muhokamadan ko'ra tabiiy til vaziyati yo'q. Demak, til o'rganuvchini fikrlashga undash uchun ikkita bir-biriga bog'liq bo'lmagan tushunchalarni birlashtirish texnikasidan foydalanish kerak.

Xulosa va takliflar. Til ta'limida mustaqil ta'limning ahamiyati katta. Biroq tilni o'zlashtirishga yordam berish uchun o'qituvchilarning vaqti yetarli emas. Bugungi ta'lim tizimida dunyoning deyarli barcha burchaklarida har qanday til ham boshqa fanlar kabi o'qitiladi. Tilni nafaqat o'rganish, balki o'zlashtirish kerak ekan, maktablarda (yuqori va kichik sinflarda) va oliy o'quv yurtlarida boshqa fanlar kabi til o'rgatish uchun atigi bir soatgina vaqt ajratilishi mustaqil ta'limning muammolaridan biridir. Har bir til o'qituvchisi o'z yechimlarini topishi mumkin. Birinchi, 80/20 qoidasi vaqt muammosini muayyan darajada hal qiladi. Ikkinchi, talabalarni auditoriyadan tashqarida mashq qilishga odatlantirish va qiziqarli ekanligiga ishonitirish. Shu ma'noda til eshikdan tashqarida ekanligi shubhasizdir. Talabalar o'zbek tilidan foydalanishlari mumkin bo'lgan manbalar, odamlar, joylar va vaziyatlar ro'yxatini tuzishi kerak. Til o'rganuvchilarga film tomosha qilishni yoki o'zlari yoqtirgan musiqalarni tinglashni yoki auditoriyani bir restoranga aylantirishni ham taklif qilish mumkin. Ular menyudan buyurtma qilishni mashq qilishlari uchun. Internet ham vaqt muammosini hal etishda muhim fenomen. So'ngi paytlarda o'zbek tilini o'rgatuvchi ana shunday saytlar ko'zga tashlanib qoldi. Til o'qituvchisi veb-saytlar va ilovalarni o'zi topib, talabaga tavsiya etgani ma'qul. Agar o'qituvchi talabalardan kengroq sohalarida bilim ehtiyojini sezsa, fan tilidagi integratsiyalashgan ta'lim yondashuvidan foydalanish tavsiya qilinadi. O'zbek tili orqali tarix, fan, matematika, musiqa kabi sohalariga murojaat qilishi mumkin. Mustaqillik – yo'l-yo'riqsiz, mustaqil ravishda harakat qilish qobiliyatini anglatadi. Til o'rganishda bu turli sohalarida harakat qila bilish demakdir. Masalan, o'zbek xonadoniga mehmonga borish yoki do'stiga xabar yozish. Shundagina, O'zbekiston bo'ylab sayohat qilish, fikr almashish va bundan zavqlanish erkinligi paydo bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Kadirova, X. (2024). O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda mustaqil ta'limning ahamiyati. O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti, 1(01),7–14. Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/anjuman/article/view/93>
2. Кадирова Х., Эркин А. Личность и творческий подход учителя в образовании //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 43. – С. 593-599.

3. Кадирова, К. (2023). Создание списка сайтов для практического и самостоятельного изучения узбекского языка. Международный научный журнал образования и лингвистики, 2 (6), 26–33.
<https://doi.org/10.46299/j.isjel.20230206.04>
4. Кадірова Х. Б. Технологія викладання узбекської мови в нефілологічних українських групах //The 8th International scientific and practical conference “Distance learning in universities and modern problems” (November 07-10, 2023) Budapest, Hungary. International Science Group. 2023. 314 p. – 2023. –
5. С. 222.